



## Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-dekabr)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi va indeksi.

153,4 mldr. so'm  
87,1 %

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

17207,0 mldr. so'm  
98,6 %

Ishlab chiqaradigan sanoat

616,1 mldr. so'm  
136,3 %

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

96,3 mldr. so'm  
97,8 %

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning sanoat korxonalari tomonidan 18 072,8 mldr. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 102,3 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 95,2 %ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarishda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning fizik hajm indeksi 36,3 %ga oshishi kuzatildi.

Aksincha, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda 2,2 %ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 1,4 %ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 12,9 %ga pasayish kuzatilgan.



## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Jamiga nisbatan ulushi, %da




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 153,4 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 foizini tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoat

Jamiga nisbatan ulushi, %da

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17 207,0 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,2 foizini tashkil etdi.






## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning hajmi 117,6 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 0,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali 3 136,4 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 17,4 %), o'rta-quyi texnologiyali 2 431,0 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 13,4 %), quyi texnologiyali tarmoq 11 522,1 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 63,7 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarish hajmi  
(mlrd. so'm)



Ishlab chiqarishdagi ulushi  
(foizda)



yuqori texnologiyali  
 o'rta-yuqori texnologiyali

o'rta-quyi texnologiyali  
 quyi texnologiyali



## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-dekabr oylari davomida, ishlab chiqara-digan sanoatda 438,8 ming tonna chaqiq tosh (2019-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 64,2 %ga o'sgan), 153,7 ming tonna po'latdan quvurlar (1,9 martaga), 401,3 ming tonna asfalt (39,7 %ga), 21454,3 tonna yigirilgan ip (2,1 martaga oshgan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Chaqiq tosh, ming t.	267,2	438,8	171,6
Po'latdan quvurlar ming t.	79,6	153,7	74,1
Tamaki (sigaret), mln.dona	10 386,0	9 938,0	-448
Asfalt, ming t.	287,2	401,3	114,1
Yigirilgan ip, t	10 300,0	21 454,3	11 154,3

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Xo'jalik sovuni, t	5 580,0	4 436,0	-1 144,0
Mineral va kimyoviy o'g'itlar chiqarish, ming t.	56,1	14,6	-41,5
Paxta tolasi, ming t.	16,1	36,5	20,4
O'simlik yog'i t.	39 813,0	32 431,0	-7382,0



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab  
chiqarish**  
*(yirik korxonalar bo'yicha)*



Tarkibida azot va  
fosfor bo'lgan  
mineral yoki  
kimyoviy o'g'itlar

**3,90**  
ming tonna

Aroq

**302,1**  
ming l. 100% spirit

Xo'jalik sovuni

**4436,0**  
tonna



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab  
chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)



Uzum vinosi

1802,5  
ming l.



Pivo (pivo ishlab  
chiqarish  
chiqindilardan  
tashqari)

28807,0  
ming l.



Yumshoq bug'doy va  
spelta uni

177,3  
ming tonna.



Birinchi navli undan  
tayyorlangan bug'doy  
noni (buxanka), og'irligi  
600 g.

711,5  
tonna



Tozalangan paxta yog'i  
va uning fraksiyalari  
(kimyoviy modifikatsiya  
qilinganlaridan tashqari)

13 629,7  
tonna



Paxta tolasi

36,5  
ming tonna



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish

(yirik korxonalar bo'yicha)



Paxta chigiti



Paxta tiviti (lint)



Yigirilgan ip

59,5  
ming tonna

2 973,5  
tonna

21 454,3  
tonna



Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi

70,9  
mln kBt.s



Bug' va issiq suv  
(issiqlik energiyasi)

90,6  
ming Gkal.



Portlandsement

103 886,8  
tonna



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab  
chiqarish**  
*(yirik korxonalar bo'yicha)*



Po'latdan quvurlar



Asfalt



Chaqiq tosh

153,7  
*ming tonna*

401,3  
*ming tonna*

438,8  
*ming tonna*



Tamaki (sigaret)



Yirik shoxli  
qoramollar uchun  
tayyor ozuqa



Mineral va kimyoviy  
o'g'itlar chiqarish

9 938,0  
*mln. dona*


107,4  
*ming tonna*

14,6  
*ming tonna*



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Jamiga nisbatan ulushi, %da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 616,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,4 foizini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash tarmoqlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 36,3 %ga oshganligi kuzatildi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 96,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 foizini) tashkil etdi.




## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,3 %ga pasayganligi kuzatildi.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 11 677,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 15,4 %ga oshganligi hamda jami sanoatdagi ulushi 64,6 %ni tashkil etganligi kuzatildi.



Oziq-ovqat ishlab chiqarish tarkibida vino, aroq va pivo mahsulotlari 3,6 %ni (2019- yil yanvar-dekabr oylarida 4,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 40,9 %ni, shuningdek, Urgut tumani 12,8 %ni, Samarqand tumani 9,5 %ni, Jomboy tumani 7,1 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishida viloyatning o'sish sur'ati (115,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Payariq (262,6 %), Bulung'ur (190,0 %), Oqdaryo (172,5 %), Nurobod (141,7 %), Jomboy (132,2 %), Ishtixon (127,7 %) hamda Kattaqo'rg'on (121,2 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, ulushi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %da	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, %da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>11 677,9</b>	<b>100</b>	<b>115,4</b>
Samarqand sh.	4 774,4	40,9	108,1
Kattaqo'rg'on sh.	198,6	1,7	88,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	250,4	2,1	172,5
Bulung'ur	500,2	4,3	190,0
Jomboy	830,9	7,1	132,2
Ishtixon	225,4	1,9	127,7
Kattaqo'rg'on	285,5	2,4	121,2
Qo'shrabot	34,1	0,3	116,4
Narpay	301,2	2,6	120,8
Payariq	227,9	2,0	262,6
Pastdarg'om	296,5	2,5	119,4
Paxtachi	227,6	1,9	109,7
Samarqand	1108,8	9,5	109,8
Nurobod	190,5	1,6	141,7
Urgut	1 492,6	12,8	105,4
Toyloq	733,0	6,3	113,3



## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6 943,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 38,4 %ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va indeksi

	2020- yil yanvar-dekabr mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, %da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>18 072,8</b>	<b>102,3</b>
Samarqand sh.	8 052,5	102,7
Kattaqoʻrgʻon sh.	359,1	101,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	344,0	111,5
Bulungʻur	519,0	109,6
Jomboy	2101,1	86,1
Ishtixon	352,2	121,1
Kattaqoʻrgʻon	431,5	106,8
Qoʼshrabot	45,9	102,7
Narpay	596,5	120,6
Payariq	354,5	109,6
Pastdargʻom	582,9	111,9

	<b>2020- yil yanvar-dekabr mldr. so‘m</b>	<b>Fizik hajm indeksi, %da</b>
Paxtachi	356,6	113,7
Samarqand	1 402,0	98,2
Nurobod	212,8	115,5
Urgut	1 629,1	106,2
Toyloq	743,1	106,6



### **Sanoat ishlab chiqarish hajmida hududlarning ulushi, %da**



Viloyatning sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Samarqand shahrida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning (44,6 %), Jomboy (11,6 %), Urgut (9,0 %), Samarqand (7,8 %), Toyloq (4,1 %), Narpay (3,3 %), Pastdarg‘om (3,2 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Qo‘schrabot (0,3 %), Nurobod (1,2 %) hamda Oqdaryo (1,8 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.




**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi jami sanoat mahsulotiga nisbatan  
(2020- yil yanvar-dekabr oylarida)**

	Mahsulot hajmi (mlrd. so‘m)	Jamiga nisbatan ulushi %da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>7 823,5</b>	<b>43,3</b>
Samarqand sh.	2 382,6	29,6
Kattaqo‘rg‘on sh.	153,9	42,9
tumanlar:		
Oqdaryo	128,7	38,5
Bulung‘ur	255,1	49,1
Jomboy	541,9	25,8
Ishtixon	91,2	25,9
Kattaqo‘rg‘on	324,2	75,1
Qo‘shrabot	36,4	79,3
Narpay	35,7	6,0
Payariq	337,8	95,3
Pastdarg‘om	322,0	55,2
Paxtachi	320,2	89,8
Samarqand	1 030,0	73,5
Nurobod	190,8	89,7
Urgut	1 342,5	82,4
Toyloq	330,6	44,5



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznes subyektlari ulushi, %da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8 216,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, umumiy ishlab chiqarish hajmi-dagi ulushi 45,5 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznes subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish-dagi eng yuqori ulushi Qo'shrabot hamda Nurobod, (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %ni, Oqdaryo (99,4 %), Bulung'ur (96,1 %), Paxtachi (91,0 %), Urgut (81,9 %), Samarqand (71,2 %), Pastdarg'om (65,9 %) tumanlarida kuzatildi.


Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Kattaqo'rg'on shahri (52,5 %), Samarqand shahri (30,2 %), Ishtixon (26,5 %), Narpay (9,1 %) tumanlarida kichik biznes subyektlari ulushining kamligi kuzatilgan, ushbu holatni mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini  
(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatda 6 971 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 599 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligining 22,9 %) Samarqand shahriga, 1 022 tasi (14,7 %) Urgut tumaniga, 652 tasi (9,3 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxonalar soni,  
birlikda**



**Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda**



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha 1 551 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 260 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalaridagi ulushi 16,8 %) Samarqand shahrida, 212 tasi (13,7 %) Urgut tumanida, 160 tasi (10,3 %) Samarqand tumanida, 147 tasi (9,5 %) Pastdarg'om tumanida tashkil etilgan.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 61 ta loyiha bo'yicha 796,3 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 13,7 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2020-yil yanvar-dekabr oylarida 133 ta yangi ish o'rirlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqlaslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rirlari soni 84,8 foizga pasayishi kuzatildi. Shu bilan birga, 2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining ko'payganligi kuzatildi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi**

	2019-yil yanvar- dekabr	2020-yil yanvar- dekabr
--	-------------------------------	-------------------------------

Loyihalar soni, <i>birlik</i>	40	61
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	19	29
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	587,5	796,3
Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh dollar</i>	8,5	13,7
Yaratilgan yangi ish o'rirlari, <i>birlik</i>	876	133

Sanoat statistikasi bo'limi  
Tel: (66) 235-06-80